# PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

1/2023

**Bosh muharrir:**
Kirgizbayev Abdug‘affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o‘rinbosari)

**Tahrir hay’ati:**
Djuraev Risbay Xaydarovich
Abdullaeva Shaxzoda
Bulatov Saidaxbor
Ibrayimov Xolboy Ibragimovich
Kamilova Nodira
Karlybaeva Guljaxan
Quronov Maxammadjon
Mamadaliev Abdumajid
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Murtazaeva Maxfuza
Safarova Roxat
Tojiboeva Xilolaxon
Xakimov Muxabbat
Xodjaev Begzod

**Muassis** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o‘qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o‘zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-may-dagi 02-004-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan va unga O‘zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

© “Pedagogika” jurnali, 2023

# PEDAGOGIKA

**SCIENTIFIC-THEORETICAL AND METHODICAL JOURNAL**

**1/2023**

**CHIEF EDITOR**
Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(deputy editor-in-chief)

**EDITORIAL BOARD:**
Djuraev Risbay Xaydarovich
Abdullaeva Shaxzoda
Bulatov Saidaxbor
Ibrayimov Xolboy Ibragimovich
Kamilova Nodira
Karlybaeva Guljaxan
Quronov Maxammadjon
Mamadaliev Abdumajid
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Murtazaeva Maxfuza
Safarova Roxat
Tojiboeva Xilolaxon
Xakimov Muxabbat
Xodjaev Begzod

The founder: Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

## BADMINTON SPORTIGA OID MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

***Gamzudinov Radik Galimovich,*** *ChDPU katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada badminton sport turining xorijiy mamlakatlarda vujudga kelishi, olimlarning olib borgan ilmiy izlanishlari borasidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy va fiziologik tomondan rivojlantirishda badmintonning ahamiyati haqida so'z yuritilgan. O'zbekistonda badminton sportini rivojlanish tarixi qisqacha berilgan.

***Tayanch so'zlar:*** *jismoniy tarbiya, sport, shaxs, badminton, vosita, jismoniy faollik, qoida, aqliy qobiliyat, millat salomatligi, ko'rsatkich, jismoniy funksiya.*

## АНАЛИЗ НАЦИОНАЛЬНОГО И ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ПО БАДМИНТОНУ

***Гамзудинов Радик Галимович,*** *старший преподаватель ЧГПУ*

**Аннотация.** В статье рассказывается о зарождении бадминтона в зарубежных странах, научных исследованиях проведенных учеными. Обсуждено значение занятий бадминтоном в физическом и физиологическом развитии учащихся в начальных классах. Кратко дана история развития бадминтона в Узбекистане.

***Ключевые слова:*** *физическое воспитание, спорт, человек, бадминтон, средства, двигательная активность, правило, умственная работоспособность, здоровье нации, показатель, двигательная функция.*

## ANALYSIS OF NATIONAL AND FOREIGN EXPERIENCE ON BADMINTON

***Gamzudinov Radik Galimovich,*** *senior lecturer of ChSPU*

**Annotation.** The article tells about the origin of badminton in foreign countries, scientific research conducted by scientists. The importance of badminton lessons in the physical and physiological development of students in the primary grades is discussed. The history of badminton development in Uzbekistan is briefly given.

***Key words:*** *physical education, sport, person, badminton, means, motor activity, rule, mental performance, health of the nation, indicator, motor function.*

**Kirish.** Dunyo miqyosida jismoniy tarbiya va sport shaxs shakllanishining muhim omili sifatida tan olingan. Darhaqiqat, jismoniy tarbiya nazariyasi soha mutaxassislari tomonidan uning mazmuni va mohiyati, tasnifi (vositalar, qo'llanish jarayonlari) ilmiy jihatdan asoslangan.

**Asosiy qism.** Badminton sporti ham shular jumlasidan bo'lib, uning vujudga kelishi uzoq davrlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotimizning dolzarbligini o'rganish jarayonida tarixiy manbalarga murojat qildik va quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilishga erishdik. O'rta asr ingliz gravyuralarida bir-birlariga volanni oshirayotgan dehqonlar tasvirlangan. XVIII asrga oid tarixiy suratlardagi tasvirlar Rossiya davlatida ham insonlar o'sha paytda shunga o'xshash o'yinni o'ynaganlaridan dalolat beradi. Gavriil Derjavin ham patli koptok haqida yozib qoldirgan.

1650-yilda Shvetsiya qirolichasi Kristina Stokgolmdagi Royal Palas Qirollik saroyi yaqinida saroy ayollari va xorijiy mehmonlar bilan «patli koptok» o'ynash uchun maxsus kort qurdiradi. Mazkur kort Shvetsiya poytaxtida hanuzgacha saqlanib qolgan hamda bugungi kunda cherkov mulki hisoblanadi.

XIX asrda Angliyada gersog Beford xonadonida volan oʻyini juda ommalashadi. Gersog badminton Assotsiatsiyasining homiysi boʻlgan. Bugungi kunda u egalik qilgan Front Xollda koʻhna raketka va volanlarning ajoyib kolleksiyasi saqlanadi.

1860-yilda Isaak Sprat badminton haqida kitob yozdi va unda ushbu oʻyinning ilk qoidalarini tavsiflab berdi. Zamonaviy badmintonning Vatani Hindiston hisoblanadi. U XIX asrda Hindistonda keng ommalashgan va ayrim manbalarga koʻra – «pune», boshqalarida aytilishicha – «roopa» deb atalgan oʻyindan kelib chiqqan.

1957-yil sobiq «Ittifoq» badmintonining «tavallud topgan» kuni deb e'tirof etilishi mumkin. Shu kundan boshlab badminton Moskva va Leningrad hamda ayrim «Ittifoqdosh» respublikalar boʻylab ommaviylasha boshladi.

1962-yil bir qator respublikalar (Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Ozarbayjon, Qozogʻiston, Tojikiston), shu jumladan, Moskva va Leningrad shaharlari terma jamoalari oʻrtasida norasmiy musobaqalar tashkil etildi [1, 13-b.].

Xitoyda badminton sporti xalqning jismoniy faolligi, ya'ni oʻyin shaklida paydo boʻlgan. Uni oʻynash qoidasi bugungi kundagi badminton sportiga oʻxshaydi. Oʻyin vaqtida ikki tomon ishtirokchilari koptokni qoʻli bilan otadi, oʻyin maydonchasi chiziq bilan ikki qismga ajratiladi. Birinchi guruh ishtirokchilari koptokni uloqtiradi, ikkinchi tomon esa, qaytaradi [4, 11-12-b.]. Hozirgi vaqtda ham badminton oʻyini Xitoy xalk respublikasida mashhur va keng tarqalgan sport turi boʻlib, bolalarning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini, shuningdek, funksional holatini rivojlantirish vositasi boʻlib xizmat qiladi (Tang Vey, 2013; Zhu Rui, 2016; Chjan Cheng, 2017).

Xitoylik olimlar oʻtkazgan ijtimoiy soʻrovnomalar shuni koʻrsatdiki, boshlangʻich maktab oʻquvchilarining qariyib yarmi badminton oʻynashni boshqa sport turlaridan afzal koʻradi (Jia Jiechen 2011). Shuning uchun ushbu sport oʻyinidan foydalangan holda sinfdan tashqari mashgʻulotlarni joriy etish orqali kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi koʻrsatkichlarini oshirish mumkin. Mazkur sport turi maktabdan tashqari mashgʻulotlar tizimini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Hukumat rahbariyati tomonidan belgilab berilgan asosiy maqsad – fuqarolarni butun umri davomida jismoniy tarbiya va sport bilan shugʻullanishga jalb etish va millat salomatligini saqlashdan iborat.

Van Lin tomonidan boshlangʻich sinf oʻquvchilarining jismoniy rivojlanish darajasini oshirishning nazariy asoslari va amaliy yoʻllarini aniqlangan, badminton oʻynashga xos mashqlardan foydalanish orqali intensiv mashgʻulot usullarining roli va oʻrni asoslangan [2, 19-b.] Olimning firkicha, «oʻrta maktabda badmintonni sport turi sifatida oʻrganish yetarli darajada boʻlmagan, shuning uchun ushbu sportni boshlangʻich sinf oʻquv dasturiga kiritish nafaqat badmintonning sport turi sifatida rivojlanishi uchun zamin yaratadi balki, iqtidorli sportchilarning zaxirasini shakllantirish hamda jismoniy tarbiya oʻqituvchilari oʻquvchilarning sogʻlom rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini samarali yoʻnaltirish imkonini beradigan qoʻshimcha vositadir» [2, 16-b.]

Antropometrik koʻrsatkichlar va oʻpkaning tiriklik sigʻimiga koʻra, boshlangʻich sinf oʻquvchilarini oʻgʻil va qiz bolalarda statistik jihatdan sezilarli farqlar mavjud emas, bu esa, sinflarni jins boʻyicha farqlanmasdan tashkiliy va uslubiy jihatdan qurish imkonini beradi. Bolalarning tana massasi va tana massasi indeksi koʻrsatkichlari jismoniy tayyorgarlik koʻrsatkichlari bilan bir xil darajada aniq statistik korrelyatsiyaga ega. Bu jismoniy va hissiy intensivlikning oshishi bilan ajralib turadigan sport turlaridan foydalanishga asoslangan usullar yordamida tana massasini tuzatish imkoniyatini

nazarda tutadi. Jismoniy tarbiya dasturini haftalik mashg'ulotlar jadvalida amalga oshirish uchun o'rta maktab dasturi ikkita jismoniy tarbiya mashg'ulotini o'z ichiga olishi kerak, shuning uchun badminton o'yiniga xos bo'lgan vositalarni joriy etish, bunda umumiy hajm va yuqori intensivlik ulushini oshirish zarur [5, 5-6-b]. Badmintonchilarni tayyorlashning boshlang'ich bosqichida sport mashg'ulotlarining ahamiyati yosh badmintonchilarning sport mashg'ulotlariga aynan shu davrda poydevor qo'yilganligi va bu bosqichda yo'l qo'yilgan xatolarni keyinchalik mashg'ulotlar jarayonida tuzatish qiyin bo'lgan holatlar bilan belgilanadi. Bu holat badmintonchining mashg'ulot hamda musoboqa faoliyatining asosiy mazmunini belgilaydigan o'yin harakatlarining texnikasida ko'proq namoyon bo'ladi.

Chan Duk Nyan (2013) bolalar badmintonda yuqori natijalarga erishish bilan tananing barcha funksional tizimlarini maksimal darajada mobilizatsiya qilishga erishiladi. Sha Xaysya universitetlarda o'n ikki oylik badminton kursidan so'ng, badminton o'g'il bolalarda mushak massasini oshirishga, shuningdek, qizlarda tanadagi yog' miqdorini kamaytirishga muhim hissa qo'shganligini aniqladi, shu bilan birgalikda qo'l ushlash kuchi ko'rsatkichlari yaxshilangan, mushaklar ortdi, yelka kamari mustahkamlandi va tananing to'g'ri nafas olish funksiyasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi.

M.Tashtarianning tadqiqot ishi (2018) yosh zaif eshituvchi badmintonchilarni sportga tayyorlashda kompyuter texnologiyalarini qo'llashga qaratilgan.

Badminton vositalarining kompleks ta'sirida moddalar almashinuvi hamda butun organizm faoliyati yaxshilanadi, qon aylanish va nafas olish organlarining ishini faollashtiradi, asab tizimini mustahkamlaydi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanish darajasini va jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan badminton o'yinidan foydalangan holda eksperimental usul bolalarning normallashtirilgan harakat faolligi hajmining 50% ga va intensivligini 21% ga oshirishni nazarda tutadi.

A.A.Gujalovskiy (1986), O.V.Jbankov (2000), K.B.Ilkevich (1998), V.D.Medvedkov (1999) 7-8 yoshdagi bolalarda ortiqcha vaznni bartaraf etish uchun badminton bilan shug'ullanish metodologiyasi ishlab chiqilgan.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va dastlabki tadqiqotlarimiz asosida badminton o'yinidan foydalangan holda kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiyasini optimallashtirish yo'nalishlarini aniqlash lozimligini ko'rsatdi.

Lyu Fan tomonidan olib borilgan tadqiqotda haftada ikki marta badminton mashg'ulotlari vazn yo'qotishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi; o'rta yoshli erkaklarda jismoniy funksiyani va jismoniy xolatini yaxshilash; aql, idrok holatini yaxshilashga hissa qo'shish, qoniqish hissini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan [3, 7-b.]. Rossiyalik badmintonchilarning xalqaro maydondagi sport yutuqlari yuqori o'rinlarni egalladi. Olimpiya medallari, yevropa chempionatlari va jahon kubogi bosqichlarida g'alabalar va Jahon Universiadasida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishmoqda. O'zbekistonda terma jamoa 1963-yilda ilk bor o'tkazilgan sobiq «Ittifoq» chempionatida ishtirok etib, 14 jamoa ichidan 9-o'rinni egallashga muvaffaq bo'lgan. Ana shu yillardan boshlab badminton yurtimizda, ayniqsa, Toshkent, Farg'ona, Andijon, Navoiy va Angren shaharlarida jadal rivojlanib, ommalashib bordi. 1982-yilda Toshkentda badminton bo'yicha sobiq «Ittifoq» chempionatining shaxsiy-jamoa musobaqalari o'tkazildi. 1992 va 1995-yillarda Toshkentda ilk bor xalqaro turnirlar tashkil etildi. 1998-yilda badminton bo'yicha O'zbekiston Respublikasi o'smirlar terma

jamoasi Osiyo o‘smirlar chempionatida ishtirok etdi. 1999-yilda O‘zbekiston Respublikasi milliy terma jamoasi Kuala-Lumpurda o‘tkazilgan Osiyo chempionatida ishtirok etib, kvalifikatsion turnir bosqichidan yuqoriga o‘ta olmadi.

2004-yilgacha badminton musobaqalari faqat O‘zbekiston hududlarida o‘tkazildi. Faqatgina 2003-yilda O‘zbekiston terma jamoasi Qozog‘istonda o‘tkazilgan xalqaro turnirda ishtirok etdi.

**Xulosa.** Xorijiy va milliy tajribalar tahlili umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflarida badminton sportini o‘rgatish zarur ekanligini ko‘rsatdi.

**Adabiyotlar:**

1. Atabekov F.O‘. Badminton: Darslik. - Chirchiq, 2021. - 137 b.
2. Ван Лин. Коррекция физического развития и физической подготовленности детей младшего школьного возраста посредством игры в бадминтон (на примере китайской народной республики): Автореф. - Минск, 2022. - 42 с.
3. Лю Ф. Исследование влияния бадминтона на физическую форму и здоровье мужчин среднего возраста: Магистерская работа. - Х.: ХПУ, 2010. - 95 с.
4. Сяо Цзе и др. Теория и практика бадминтона: Общие учебники для учреждений физической культуры. - Пекин: Народный спорт, 2005. - 230 с.
5. Ша Хайся. Влияние бадминтона на физическую форму студентов колледжа: Магистерская диссертация. - Университет Цзилиня, 2010. - 92 с.

***Шамсиддинова М.Ф.***
Особенности изучения китайского языка в нелингвистических вузах..............................366
***Rajapov Sh.Z.***
Maxsus maktab o'quvchilarining adaptiv jismoniy tarbiyasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv........................................................370
***Malikova X.I.***
Surdopedagogik fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tajribalar..........................................................374
***Isoqjonova D.M.***
Ona tili darslarida kar o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari...................................................379
***Yulchiyeva D.X.***
Oilaviy barqaror ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tasnifi va tahlili............................................................384
***Karimova U.***
Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarni mehnat faoliyatiga tayyorlashning samarali texnologiyalari..................................................388

**TABIIY FANLAR TA'LIMI**

***Karlibayeva G.Ye., Matjanov N.S.***
Umumiy o'rta ta'limda fizika fanini o'qitishning ba'zi masalalari.................................................393
***Mamatov D.N.***
Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida.............................................................397
***Mamarajabov M.E.***
Pedagogik tadqiqot natajalarini tahlil qilish usullari..............................................................402
***Tursunov S.Q.***
Ta'lim jarayonida video materiallar yaratish va ulardan foydalanish.......................................406
***Xaydarova M.***
Talabalarning tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish..............................411
***Buranova Sh.U.***
Qishloq xo'jaligi mashinalari fanini o'qitishda gorizontal va vertikal inregratsiyadan foydalanish...416

**SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI**

***Abdurasilov S.F.***
Pedagogik ta'limda nusxa ko'chirish fanini o'qitishni takomillashtirish.................................420
***Rustamov L.X.***
Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishda metodik dastur bilan ta'minlash..........................426
***Raximov V.Sh.***
Oliy ta'lim talabalari o'rtasida sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishning ilmiy asoslari............................................................430
***Mirzayev A.M.***
Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida kursantlarni belbog'li kurashga o'rgatish mexanizmlari....................................................434
***Mansurov N.A.., Normaxmatova G.Sh., Jabborova D.Z.***
Zamonaviy tasviriy va amaliy san'atni o'qitish va uni idrok etishning metodik asoslari..............439
***Ibragimova X.S.***
Farobiy ta'limotida ritmik usullari.........................444
***Isakov Sh.M.***
Oliy ta'lim muassasasi talabalarida belbog'li kurash mashg'ulotlarini takomillashjtirish mexanizmlarining mavjud holati..........................446
***Gamzudinov R.G.***
Badminton sportiga oid milliy va xorijiy tajribalar tahlili..................................................451

**USTOZ**

***Tashimov N.E.***
Ilm-fan fidoyisi – zahmatkash Adilov Polat Adilovich 85 yoshda.......................455

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY NAMED AFTER NIZAMI**

**PEDAGOGICA**
(scientific-theoretical and methodical journal)
№ 1

**РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН**
**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ им. НИЗАМИ**
**ПЕДАГОГИКА**
(научно-теоретический и методический журнал)
**№ 1**
**“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.**

**Mas’ul kotib –** R.M.Medetova
**Muharrirlar –** D.A.Madjidova, X.M.Tojiboyeva
**Sahifalovchi –** S.Pirmatov
**Nashr ko‘rsatkichlari:**
Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077
Jurnal 2000-yildan chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.
2023-yil 26-fevral bosishga ruxsat etildi. 10-buyurtma.
Adadi – 175 nusxa. 29 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.
Bichimi 70x100$^{1}/_{16}$ “Roboto” garniturasi.
Nizomiy nomidagi TDPU “Tahrir va nash” bo‘limida bosildi.
100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy.